



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 5/2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 5/2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Zamira Ishonxo‘jayeva, Ra‘no Maxkamova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
<b>2. Dilrabo Babajanova</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON YO‘L XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI ISLOHOTLAR. (AVTOMOBIL YO‘LLARI* MISOLIDA).....	11
<b>3. Jaxongir Inayatov</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA FOTOGRAFIYANING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK HAYOTIDAGI O‘RNI.....	18
<b>4. Nurbek Matyakubov</b> METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN.....	24
<b>5. Nodira Radjabova</b> “BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI.....	30
<b>6. Abdulxamid Anarbayev, Shukrullo Nasriddinov</b> AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI.....	38
<b>7. Sevara Yusupova</b> O‘ZBEKISTONDAGI KAM SONLI MILLAT VAKILLARINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTDAGI ISHTIROKI.....	43
<b>8. Гулчехра Абдулхай</b> ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИДА ТУРКИСТОН АССРНИНГ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА СОВЕТ ҒОЯВИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ (1925-1950 йиллар).....	46
<b>9. Наргиза Каримова</b> ВЫРАЩИВАНИЕ, ПРОИЗВОДСТВО И ТОРГОВЛЯ БАКАЛЕЙНЫМИ ТОВАРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД.....	58
<b>10. Erkinjon Kenjayev</b> XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA‘LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI.....	63
<b>11. Шоҳида Давурова</b> ЎРТА ОСИЁ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ОЛИМЛАРИ ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ (кимёгар олимлар мисолида).....	67
<b>12. Dilshod Xolmurodov, Shaxobiddin Yusupov</b> O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME‘MORIY YODGORLIKLARI.....	74



**Dilshod Rashidovich Xolmurodov,**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
O‘zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti  
**Shaxobiddin Arslon o‘g‘li Yusupov**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi

## O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME’MORIY YODGORLIKLARI

**For citation:** Dilshod R.Xolmurodov, Sh.A.Yusupov. ANCIENT ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20401616>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida joylashgan qadimgi davrdagi me‘moriy yodgorliklari tarixiy va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahasi sifatida ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar (yunon-baqtriya, kushon va boshqalar) me‘morchilik, qadimiy shahar qoldiqlari (Sopolli, Jarqo‘ton, Fayoztepa, *Tuproqqal’a*, *Qo‘yqirilganqal’a*) kabi arxeologik yodgorliklar) orqali me‘morchilikning ilk namunalari ko‘rib chiqiladi. Maqola O‘zbekiston me‘moriy merosining noyobligini, uning Sharq va G‘arb madaniyatlarining sintezi ekanligini ta‘kidlaydi hamda bugungi kunda saqlash va restavratsiya masalalariga e‘tibor qaratadi. Ushbu yodgorliklar nafaqat tarixiy obidalar, balki milliy o‘zlik va madaniy merosning jonli timsoli sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston me‘moriy yodgorliklari, Baqtriya-Marg‘iyona moddiy madaniyati, Sopolli, Jarqo‘ton, Fayoztepa, Tuproqqal’a, Qo‘yqirilganqal’a.

---

**Дилшод Рашидович Холмуродов,**  
Джиззакский государственный педагогический университет  
Доцент кафедры истории Узбекистана  
**Шахобиддин Арслон оглу Юсупов**  
Преподаватель кафедры истории Узбекистана  
Джиззакский государственный педагогический университет

## ДРЕВНИЕ АРХИТЕКТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ УЗБЕКИСТАНА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются архитектурные памятники древности, расположенные на территории Узбекистана, с историко-культурной точки зрения. Центральная Азия, как важный перекресток Великого Шелкового пути, на протяжении тысячелетий являлась местом зарождения архитектуры различных цивилизаций (греко-бактрийской, кушанской и др.), первые образцы архитектуры можно увидеть в археологических памятниках, таких как

остатки древних городов (Сополли, Джаркутан, Файозтепа, Тупроккала, Койкирилганкала). В статье подчеркивается уникальность архитектурного наследия Узбекистана, его синтез восточной и западной культур, и сегодня обращается внимание на вопросы сохранения и реставрации. Эти памятники ценятся не только как исторические памятники, но и как живые символы национальной идентичности и культурного наследия.

**Ключевые слова:** Архитектурные памятники Узбекистана, материальная культура Бактрии-Маргианы, Сополли, Джаркутан, Файозтепа, Тупроккала, Койкирилганкала.

**Dilshod R. Kholmurodov,**  
Djizzax State Pedagogical University  
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan  
**Shahobiddin A. Yusupov**  
Teacher of the Department of History of Uzbekistan  
Djizzax State Pedagogical University

## ANCIENT ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This article analyzes the architectural monuments of ancient times located on the territory of Uzbekistan from a historical and cultural perspective. As an important crossroads of the Great Silk Road, Central Asia, for thousands of years, has been the site of the architecture of various civilizations (Greco-Bactrian, Kushan, etc.), the first examples of architecture through archaeological monuments such as the remains of ancient cities (Sopolli, Jarkutan, Fayoztepa, Tuproqqala, Koykirilgankal). The article emphasizes the uniqueness of the architectural heritage of Uzbekistan, its synthesis of Eastern and Western cultures, and today draws attention to the issues of preservation and restoration. These monuments are valued not only as historical monuments, but also as living symbols of national identity and cultural heritage.

**Index Terms:** Architectural monuments of Uzbekistan, Bactria-Margiana material culture, Sopolli, Jarkutan, Fayoztepa, Tuproqqala, Koykirilganqala.

### 1. Dolzarbli:

O'zbekiston hududi qadimdan buyon Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasi bo'lib, Sharq va G'arb tsivilizatsiyalari o'rtasidagi madaniy, savdo va ilmiy aloqalarning markazi hisoblangan. Aynan shu geografik o'rin tufayli mamlakatimizda qadimgi-antik davr (taxminan miloddan avvalgi VII asrdan milodiy IV-V asrlargacha) me'moriy yodgorliklari boy va xilma-xil bo'lib, ular orasida Afrosiyob (qadimgi Samarqand), Poykent, Varaxsha, Qo'yqirilgan qal'a, Ayoqzal'a, Tuproqqal'a, Dalvarzintepa, Kampirtepa va boshqa ko'plab qal'a-shahar majmualari alohida o'rin tutadi. Bu yodgorliklar nafaqat O'rta Osiyo, balki butun insoniyat madaniy merosining muhim qismi sanaladi.

Mavzuning dolzarbli bir necha jihatda namoyon bo'ladi.

**Birinchi**dan, tarixiy va ilmiy ahamiyati jihatidan. Antik davr yodgorliklari orqali biz qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sog'd va Kushon davlatlarining shaharsozlik, mudofaa tizimi, suv ta'minoti va me'moriy uslublari haqida chuqur ma'lumot olamiz. Arxeologik tadqiqotlar (masalan, Xorazm ekspeditsiyasi natijalari) shuni ko'rsatadiki, bu obidalar qadimgi tsivilizatsiyalarning rivojlanish bosqichlarini, migratsiya jarayonlarini va madaniyatlararo sintezni yorqin aks ettiradi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari va xalqaro hamkorlar (Yaponiya, Rossiya, Avstriya va boshqalar) bilan birgalikda bu yodgorliklarni o'rganish yanada faollashdi, yangi kashfiyotlar esa dunyo ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otmoqda.

**Ikkinchi**dan, madaniy merosni saqlash va milliy o'zlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan dolzarbdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zining qadimiy tarixini qayta tiklash va targ'ib qilishga katta e'tibor qaratdi. Qadimgi me'moriy yodgorliklar xalqimizning ajdodlari yaratgan boy madaniyatni, ularning ilm-fan va san'atdagi yutuqlarini namoyon etadi. Bu obidalarni o'rganish va muhofaza qilish orqali yosh avlodda vatanparvarlik, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat tuyg'usini shakllantirish mumkin. Bugungi kunda 7000 dan ortiq tarixiy yodgorliklar davlat

muhofazasiga olingan bo‘lib, ulardan ko‘plari UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan yoki nomzod sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Antik davr obidalarida esa bu ro‘yxatni boyitish va O‘zbekistonning jahon madaniyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Uchinchidan,** turizm va iqtisodiy rivojlanish jihatidan. Qadimiy-antik me‘moriy yodgorliklar zamonaviy turizmning asosiy magnitlaridan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi shaharlar atrofidagi antik obidalar minglab xorijiy sayyohlarni jalb qilmoqda. Tarixiy-madaniy turizm mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shadi, ish o‘rinlarini yaratadi va mahalliy hunarmandchilikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, yodgorliklarni konservatsiya qilish, muzeylashtirish va ochiq osmon ostidagi muzeylar tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Urbanizatsiya va qurilish jarayonlari tufayli ba‘zi obidalar xavf ostida qolayotgani bu mavzuni yanada dolzarblashtiradi.

**To‘rtinchidan,** globallashuv sharoitida madaniyatlararo dialog nuqtai nazaridan. Antik davr yodgorliklari O‘zbekistonni “madaniyatlar chorrahasi” sifatida ko‘rsatadi. Ular orqali turli xalqlar va tsivilizatsiyalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish, tinchlik va hamkorlik g‘oyalarini targ‘ib qilish mumkin. Bugungi geopolitik vaziyatda tarixiy merosni saqlash va uni tinchlikparvarlik vositasi sifatida ishlatish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

## **2. Metodlar:**

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-tahliliy va retrospektiv metodlardan foydalanilgan holda, O‘zbekistonning qadimgi davrdagi me‘moriy yodgorliklari misolida ilmiy tahlil etildi.

## **3. Tadqiqot natijalari:**

Qadimgi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllangan viloyatlar ko‘p bo‘lgan. Bu yerlarning xarakterli xususiyatini o‘troq – dehqon va chorvador aholi hayoti tarzida bizning er. av. II ming yillikdayoq shahar nomi madaniyatining shakllanishini tashkil qilgan. Shimoliy Baqtriyada arxeologlar tomonidan bu davrga oid mudofaa devorlari bilan o‘ralgan va mustahkam ichki binolardan iborat bo‘lgan to‘g‘ri burchak shaklidagi Sopollitepa va Jarqo‘ton manzilgohlari to‘liq ochib o‘rganildi. Sopollitepaning o‘rganilishi O‘zbekiston hududida sug‘orma dehqonchilik qariyb to‘rt ming yoshga ega ekanligini ilk shaharlar paydo bo‘lishi tarixi ham shuncha davrni o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi.

Afsonaviy va diniy mazmundagi boy manzaralarga ega bo‘lgan turli-tuman muhrlar - tumorlar Baqtriya-Marg‘iyona moddiy madaniyati majmuasining o‘ziga xos ajralib turadigan tomonlaridan hisoblanadi. Muhrlar uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

- 1) ko‘pchiligi to‘rsimon ishlangan metall buyumlar;
- 2) toshdan ishlangan silindrsimon muhrlar;
- 3) nisbatan ko‘p sonli to‘rtburchak yoki aylana shakldagi ikki tomoniga tasvir tushirilgan muhr-tumorlar. Muhrlardan bir qismi geometrik ishlangan bo‘lib, xoch shaklini eslatadi. Ulardagi bezaklarda odamsimon va hayvonsimon tasvirlar mavjud bo‘lib, ular orasida haqiqiy va fantastik mavjudotlar uchraydi. Ayrim tasvirlar yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashni aks ettirgan. Ayrimlari diniy tantana va bayramlarni eslatadi (Sopolli, Jarqo‘ton).

Qal‘alarning paydo bo‘lishi harbiy xavf-xatar paytida boshpana vazifasini bajarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, shuningdek, qal‘alar qadimgi dehqonlar jamiyatida chuqurlashib borayotgan ijtimoiy tabaqalashuv jarayonini o‘zida aks ettiradi. Qal‘alarning ichki qismlari turli uslublarda bunyod etilgan. Gonur I ning shimoliy qal‘asida yakka reja asosida qurilgan katta zal va biridan biriga o‘tiladigan qator uylar ochilgan. To‘g‘aloq 21 da ham qal‘a to‘la qazib o‘rganilgan. Qal‘aning shimoliy tomonida katta gulli ustunlar bo‘lgan bosh kirish qismi joylashgan. Qal‘aning markaziy hududida to‘g‘ri burchakli xonalari bo‘lgan markaziy saroy qurilgan. Xonalarning devorlari va sathida gips suvoqlar saqlanib qolgan.

Qadimgi dehqonlar *Sopollitepa* qishlog‘i uchun tabiiy tepalikdan iborat hududni tanlashgan. Uning markaziy qismida o‘lchamlari 82x82m bo‘lgan qal‘a joylashgan. Ichki yo‘lakni 3 qator mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Birinchi ichki mudofaa devori

qishloqning markaziy qismini himoya qilgan. Devorlarning qalinligi 2 m dan ortiq. Bu devorlar juda murakkab me'moriy reja bilan qurilgan. Qal'a devorlari har xil balandlikda saqlanib qolgan. Birinchi ichki devorning qal'a balandligi 1,4-2 m, ikkinchisidiki 1,2 m, uchinchi, ya'ni tashqi devorning saqlanib qolgan balandligi 0,4-1 m. Qal'aning butun ichki qismi 8 ta mahallaga ajratilgan bo'lib, ular bir-biri bilan yo'lakchalar orqali ajratilgan. Qal'aning asosiy devoridan uning markaziga qarab katta ko'cha o'tgan.

**Jarqo'ton yodgorligining** umumiy maydoni 100 gektardan ortiq Jarqo'ton qishlog'i bundan 3.5 ming yil avval qad ko'tarib, uch qismdan iborat bo'lgan. Qishloqning markazida maydoni 5 gektarga teng bo'lgan arki a'lo joylashgan. Uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, uning ichida hukmdorning qarorgohi joylashgan. Bu arki a'lo to'rtburchak shaklida bo'lib, tashqi mudofaa devorining balandligi 5 metrni tashkil etadi. Mudofaa devori burjlar bilan himoyalangan. Uning ichki qismida, shuningdek, turar joylar va hunarmandchilik inshootlar ham joylashgan. Jarqo'ton yodgorligining eng baland qismida esa otashkada yoki olov ibodatxonasi joylashgan. U to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 45x60 m. U qalin tashqi devorlar bilan o'rab olingan. O'z vazifasi va qurilish uslubiga ko'ra, u ikki qism: ibodatgoh va xo'jalikdan iborat bo'lgan.

Antik davr O'zbekiston hududida shaharsozlik san'atining yuksak rivojlangan davri hisoblanadi. Hozirgacha hech bir antik davr shaharlari to'liq o'rganilmagan, shuning uchun ularning ilk ko'rinishini tiklab bo'lmaydi. O'rganilgan ba'zi tomonlarga qarab ularning taxminiy ko'rinishini tiklash mumkin.

**Tuproqqal'a** binolari ichida ikkinchi qavatdagi beshinchi xona, ayniqsa, bezakdor bo'lib, bu xona qasrning shimolidagi qo'raga qaratib solingan. Xona to'rtta ustunli, yassi tomli ulkan zal edi. Zalda tantanali marosimlar o'tkazilgan bo'lsa kerak. Zalning devorlariga qora va sariq tusdagi yo'l (polosa)larning bir-biri bilan kesishishidan hosil bo'lgan bezakli rasmlar ishlangan, bu yo'llarga esa yurak, atirgul bargi va ayiq-tovon o'simligi bargini tasvirlovchi shakllar zeb berib turgan. Mazkur yo'llar rombsimon kataklar hosil qilgan bo'lib, bu kataklarga mashshoqlarning rasmlari ishlangan. Shu rasmlardan nafis rasmi qariyb butunicha saqlanib qolgan. Ayolning bilaguzuk taqilgan, bir qadar lo'ppiyoq qilib chizilgan qo'lining barmoqlari uchburchak shaklidagi katta arfaning torlariga tegib turgan bo'lib, bu arfa ossuriyaliklarnikiga o'xshab ketardi. Ayol yelkalarining va yuzining yumaloqligi, umuman butun obrazning yaratilish uslubi bizga Kushon-Gandhara badiiy an'analarini eslatadi. Tuproqqal'adan topilgan arfachi ayol rasmi Ayritomdan topilgan friz (uy devorlari tepasiga solinadigan naqshning o'rta qismi)lardagi sozandalarga o'xshaydi.

**Qo'yqirilganqal'a** - miloddan avvalgi IV-III asrlarda qadimiy Xorazm uslubida qurilgan bo'lib, ajoyib yodgorlik sifatida bizgacha yetib kelgan. Qo'yqirilganqal'a o'n sakkiz qirrali doira shaklida bo'lib, boshqa qal'alardan ajralib turadi. Qal'aning tashqi devorida 9 ta burj bo'lgan. Olimlarning fikriga qal'aning markaziy binosi o'z davrida rasadxona vazifasini bajargan. Tashqi devor ichkarisi behisob qalin xonalar bilan qoplangan. Qo'yqirilgan qal'adan yozuv namunalari topilgan. S.P.Tolstov ularni Xorazm yozuvi deb ataydi. Qal'a devorining umumiy uzunligi 865 metrni tashkil qiladi. Qal'a ikki devor bilan o'rab olingan bo'lib, o'rtasida ikki qavatli silindr shaklidagi joy mavjud. Pastki qavat to'liq saqlanib qolingan.

Dalvarzintepada mill.avv.VIII-VII asrlarda Farg'onaning ilk shahri shakllangan. Bu shahar ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida jamoa hukmdorining qarorgohi joylashgan. O'rdaning chor atrofi mudofaa devori (qalinligi 10 m.gacha) bilan o'rab olingan. Shahar ham mudofaaning istehkomli tizimiga ega bo'lib, bu yerda asilzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniylar istiqomat qilganlar. Miloddan avvalgi II asr oxiri - I asrlarda hozirgi Dalvarzintepa o'rnida kichik manzilgoh paydo bo'lgan. Kushon podshohlaridan Kanishka davrida Dalvarzin shahar sifatida shakllangan. Mil. avv. I asr oxiri - milodiy I asr boshlarida Shimoliy Baqtriya hududida Dalvarzindan boshqa bunchalik katta shahar bo'lmaganligi ta'kidlanadi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik, harbiy

hamda ma'muriy boshqaruvning markazlashuvi shaharning gullab-yashnashi va me'morchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

**Xolchayon** Yunon-Baqtriya va kushonlar davri madaniyatiga oid yodgorliklar majmuasi (mil.avv. IV - mil. V asr) Surxondaryo viloyatining Denov tumani hududida joylashgan. Bir necha tepalik (Xonaqohtepa, Qorabog'tepa, Maslahattepa va boshqalar)dan iborat. Istehkom, kanal, bog', saroy va binolar hamda Kushon podshosi Geray qarorgohi qoldiqlari topilgan. Devorlarni bo'yab naqsh, rasmlar ishlangan. Ayol va erkaklarning obrazlari, taxtga o'tirib rafiqasi bilan suhbatlashayotgan hukmdor, sovut kiygan jangchilar qiyofalari tasvirlangan. Xonaqohtepadan mil. avv. II-I asrlarga oid hukmdor saroyi qoldiqlari topilgan. Bino to'g'ri to'rtburchak shaklda, maydoni 35x26 m bo'lib, markaziy fasadi to'rt ustunli ochiq ayvondan iborat. Yog'och ustunlar ohaktoshdan ishlangan tagkursiga o'rnatilgan. Ayvondan katta zalga o'tilgan. Zal devorlari osti bo'yab keng supa yasalgan. Bino poydevori kvadrat shakldagi xom g'ishtlardan ishlangan, g'ishtning sirtiga turli shakldagi tamg'alar bosilgan. Bino bir qavatli, usti tekis qilib yopilgan bo'lib, tashqi qalinligi 2,2 m, ba'zi joylarida 4 m ga yetgan.

Zal va ayvon devorlarining pastki qismida devoriy surat izlari topilgan. Yuqori qismiga esa haykallar ishlangan. Xolchayondagi binoning asosiy ayvon peshtoqining joylashuv usuli uning ortidan baland katta xonaning joylashuvi bizga ahamiylar davri me'morchiligini eslatadi. Ayvon va ayrim xona ustunlari yog'ochdan bo'lib, tomi tekis, qirrali, tomlari cherepitsa bilan yopilgan. Qalin cherepitsadan tarnovlar qilingan. Cherepitsali me'morchilik an'analari O'rta Sharq uchun begona bo'lib, ellinistik an'analarga borib taqaladi. Inshoat bo'rtib chiqqan tish ko'rinishiga ham o'xshab ketadi.

**Qoratepa** buddaviylik yodgorligi Eski Termiz majmuasi tarkibiga kiradi. Tadqiqotlar natijasida Qoratepaga milodiy I asr oxirlarida asos solinganligi, yodgorlik janubiy, g'arbiy va shimoliy tepaliklardan tashkil topganligi aniqlandi. Qoratepaning o'rganilishi 1928-yilda A.S. Strelkov tomonidan boshlangan bo'lib, turli tanaffuslar bilan hozirga qadar davom etmoqda, hozirgacha to'qqizta ibodatxona ochib o'rganildi.

Qoratepa qazilganida undan budda dini marosimlariga oid buyumlar, toshdan yasalgan soyabon, qopqoqlar, nilufar surati va boshqa ko'plab narsalar topildi. Sopol buyumlar va devorlardagi yozuvlarning ham bu boradagi ahamiyati kattadir. Sopol buyumlardagi yozuvlarning ko'pi hindcha kharoshthi va braxma yozuvlaridir, ammo binodan kushon yozuvli buyum ham topildi. Kushon yozuvi mahalliy sharqiy fors tiliga moslashtirilib, yunon alifbosi asosida tuzilgani aniqlandi. Bu bilan arxeologlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayotini o'rganishda g'oyat qimmatli yodgorlikka ega bo'ldilar. Bundan tashqari, Qoratepadagi budda yodgorligi Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlarning Hindiston va Xitoy bilan bo'lgan aloqalarini o'rganishga ham imkon beradi.

**Fayoztepa.** Kushon davri yodgorliklaridan biri Fayoztepa Eski Termiz devorlarining shimoli-g'arbida, Qoratepa tekisligining shimoli-g'arbadan janubi-sharqqa yo'naltirilgan holda qurilgan budda ibodatxonasidir. Bu to'rtburcha ziyoratgohning ichkari hovlisi ikki tomondan maxsus ayvon bilan o'ralgan imoratdir. Ushbu budda obidasining qurilgan paytida binokorlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, umuman, shaharsozlik va me'morchilik rivojlangan Kushon-Baqtriya davlati davriga, ya'ni milodning II asrlariga to'g'ri keladi. Fayoztepadagi devorlar qurilishiga asosan paxsa va xom g'isht ishlatilgan, tomlarning ba'zilar gumbazsimon shaklda bo'lgan.

Buxoro yaqinidagi qadimgi Rahfandumdagi qal'a xarobasi. Kushonlar davrida Varaxshada va uning atrofida hayot gullagan. Bu davrida me'morchilik rivojlanib, bir necha qavatli shinam uylar, rasmlar va haykallar bilan bezatilgan saroy va ibodatxonalar qad ko'taradi. Varaxshaning qasri monumental san'atning eng yaxshi namunasi hisoblangan. Qasrning "Katta qabullar zali" rang-barang devor suratlari bilan bezatilgan. Bezaklarning saqlanib qolgan ikki metr balandlikdagi namunasi yuksak badiiy ijrosi bilan lol qoldiradi. Qasr devoridagi suratlar o'sha davr uchun eng xarakterli voqealar – shunqorlarning ov qilish sahnalari, ibodatxonaga tantanavorlik bilan kelishi, diniy

marosimlarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, ular orasida so'g'd hukmdori huzuriga sovg'alar bilan kelgan diplomatik missiyalarni shohona qabul qilish manzarasi ham o'rin egallagan.

Bu davrga oid O'zbekistondagi shaharlarining aniq ko'rinishi Varaxsha shahri ifodalab beradi. Varaxshaning maydoni 9 ga, balandligi 10-20 metr keladigan ulkan tepa ustida qurilgan. III-IV asrlarda Varaxsha tanazzulga yuz tutadi. V asrdan boshlab yana tiklanib Buxoroning qadimgi hukmdori – buxorxudotlarning qarorgohiga aylangan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo'laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo'lgan. Arkning janub tomonidan mudofaa devoriga tutashgan.

Afrosiyobning hududidan topilgan arxeologik materiallar shaharning bundan 2750 yil avval qurilganligiga guvohlik beradi. Shaharning o'rta qismida Samarqand hukmdori – Ishxid (mil.avv. VII asr) saroyi ochilgan. Saroy mehmonxonasining to'rt devori har xil mazmundagi rasmlar bilan bezalgan. U to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish, ov qilish jarayonlarini tasvirlashga bag'ishlangan. Mahmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojib bergan ma'lumotlariga ko'ra, Afrosiyob turkiy xalq xoqoni bo'lib, Alp Er To'nga nomi bilan mashhur bo'lgan.

Panjikent yodgorligining maydoni 13,5 ga ni tashkil qilib, shahriston, ko'handiz, rabod va qabristondan iborat. Sharistonda ko'p tarmoqli ko'chalar, xom g'isht va paxsadan qurilgan 2 qavat ayvonli turar joy binolari, hunarmandchilik ustaxonalari va do'konlar mavjud bo'lgan. Shahriston markazida V-VII asrlarga oid ibodatxona ko'rinishida 2 ta bino bo'lgan. Shahar devorlari g'arbda uch qavat istehkom bilan o'ralgan. Panjikent saroyi devorlardagi rasmlarda oq suyaklar bazmlari, diniy marosimlar, ov, janglar manzilgohlari va afsonaviy shakllar tasvirlangan. Panjikentdagi o'ziga xos belgilar Varaxshaga to'g'ri kelmaydi. Lekin Panjikent me'morchiligida qo'llanilgan me'moriy usullar O'rta Osiyoning shu davrga oid ko'plab hududlarida ishlatilgan me'moriy uslublar bilan o'xshash jihatlari mavjud.

**Yunusobod Oqtepasasi.** Yunusobod Oqtepasining janubiy tomoni baland va tik tepalik ko'rinishidagi ko'shikli qo'rg'on - qasr va istehkomsiz qishloq xarobasidan iborat. Maydoni 100 ga. Eng baland joyi 21 m. Ko'shikli qo'rg'on shimoldan janubga tomon cho'zilgan va qishloqdan chuqur jarlik (xandaq) bilan ajratilgan. V asrda qasr do'nglik ustiga urib chiqilgan paxsa tagkursida qad ko'targan. U uzun va keng zinapoyaga o'xshatib qurilgan. Ikki qavatli binodan iborat. Uning birinchi qavatining maydoni 80x80 m, yuqori qavatining maydoni 50x50 m ga teng. Qasrning har ikkala qavatining ichkari tomoniga uzun yo'lak-galereya bino qilingan va tomi ravoqsimon qilib yopilgan. Yo'laklar xalqasining kenligi 2 m, balandligi 2,3 m. Ustki qator yo'laklari burchaklarida gumbazli dumaloq xonalar bo'lib, ular tashqaridan doira shaklidagi minoralarni hosil qilgan.

**Xorazmdagi Teshikqal'a** qo'rg'onining qurilish uslubi birmuncha mukammalroq. Tarhi kvadrat bo'lgan qasr, atrofi qalin paxsa devor bilan o'rab olingan. Markazda baland paxsa supa ustida ko'p xonali turar joy minorasi qad ko'targan. Uning devorlariga arklar bilan bezatilgan yarim- ustunlar o'rnatilgan. Devor bilan minora oralig'ida turar joy xonalari va xo'jalik ahamiyatidagi binolar qurilgan. Teshikqal'a qasrining rivojlanish davri va qurilishi me'morchiligi Marvdagi Nagimqal'a va Toshkentdagi Oqtepa qasrlarining rivojlanishi va qurilish me'morchiligida umumiy o'xshashlik mavjud.

Ilk o'rta asrlarda So'g'd, Toxariston, Xuroson va Xorazmda qadimdan mavjud bo'lgan maktablar asosida o'ziga xos me'morchilik an'analari shakllandi. Bu davrda qadimiy o'zakning mushtarakligi, O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati bir-biriga yaqinligi me'moriy inshootlarning qurilishida ham o'z aksini topdi.

**Qirgizqal'a.** Ushbu yodgorlik Surxondaryo hududida joylashgan bo'lib (IX-X asrlar), nima maqsadda qurilganligi haqida ma'lumot yo'q. O'rta asrlarda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qal'a shahar tashqarisidagi qo'rg'on vazifasini o'taganligini ko'rsatadi. Qal'a to'rtburchak tarhli (53,3x54,8 m), bir qavatli, faqat

yo'laklari umumiy balandlikka ikki qavatli bo'lib, xom g'isht (30x30x5-5,5 sm li)lardan qurilgan, toq va ravoqlarda shu o'lchamdagi pishiq g'ishtlar ham ishlangan, qalin devor bilan o'ralgan (tashqi devor qalinligi 2-2,5 m), burchaklari hajmdor burjlar bilan mustahkamlangan. Burjlar oralig'ida toqlar bilan yopilgan ayvonlar joylashgan. Tarhlarga bir maromda takrorlanuvchi tuynuklar ishlangan. Qal'aning barcha xonalari va markazdagi sahn (11,5x11,5 m) o'zaro yo'laklar bilan bog'langan. Ayvon va yo'laklar binoni to'rt qismga bo'lgan.

Qirqqiz IX-X asr me'morchiligining takrorlanmas namunasi hisoblanadi. Unda xom g'ishtdan foydalanilgan holda rejaviy va me'moriy qurilish yechimlarini hal qilishga urinish ko'zga tashlanadi. Qirqqiz me'moriy yechimidagi aniq loyiha, arklarning aniq ifodalanganligi, xonalarning joylashuvi, arklar shaklining soddaligi, bino devorlarining tishchalar bilan yakunlanganligi to'la ma'noda o'sha davr me'morchiligida yangi uslublarning qo'llanilganligidan dalolat beradi.

**Somoniylar maqbarasi.** Somoniylar maqbarasi ilk o'lta asrlar me'morchiligining asrlar silsilasiga bardosh berib kelgan O'rta Osiyodagi noyob me'moriy inshootlardan biridir. Har bir me'moriy obida kabi bu yerda ham tilsiz g'ishtlar mavhum narsani bildirgandek bo'ladi. Me'morchilikning hayratga soladigan kuchi shundaki, uning har bir qismi nimanidir gapirayotganga o'xshaydi. Me'moriy obida o'z buloqlariga ega bo'lib ular goho jilg'a kabi bilinmas bo'ladi. Shu bilan bir qatorda o'z o'zanlariga egaki, ulardan obi hayot to'lib oqadi.

Somoniylar maqbarasi IX-X asrlarda O'rta Osiyoda pishgan g'ishtdan bino qilingan me'moriy obidalarining yagona namunasi bo'lib qolmadi. Bu davrda bir qancha maqbaralar bunyod etilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Mirsaid Bahrom (Karmana). Surxondaryodagi Oqostonabobo, Turkmanistondagi Alamberdara maqbaralari Somoniylar maqbarasi me'morchiligining bevosita davomchilari hisoblanadi.

O'zbek me'morchiligining noyob obidalarini allaqachon haqqoniy ravishda jahonshumul shuhratga sazovor bo'lgan Me'morchilik obidalarining tarixiy ildizlari arxeologlar tomonidan uyushtirilgan ekspeditsiyalar yordamida yer qatlamida ko'milib yotgan, ikki – uch yillik qadimiyatga ega bo'lgan o'zbekistondagi ko'plab me'moriy inshootlarning qoldiqlari ochilmoqda. Qadimiy shaharlardagi arxitektura yodgorliklari hozirgi davrda ham hayot qo'ynida to'laqonli "yashamoqda".

Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Farg'ona, qo'qon, Termiz, Jizzax, Toshkent shaharlari va viloyat tumanlarida ko'plab turar joylar, qo'rg'onlar, xonaqox hamda daxalar, qal'alar, maqbaralar, minoralar, sardoba kabi me'moriy yodgorliklar o'rganilmoqda.

#### **4.Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning qadimgi davrdagi me'moriy yodgorliklarini ilmiy o'rganish nafaqat ilmiy-tadqiqot, balki ta'lim-tarbiya, turizm va madaniy diplomatiya sohalarida ham katta dolzarblikka ega. Uni chuqur ilmiy o'rganish va keng targ'ib qilish orqali biz ajdodlar merosini kelajak avlodlarga yetkazish, milliy g'ururni oshirish va O'zbekistonni jahonda yanada nufuzli qilishga hissa qo'shamiz. Bu mavzu bugungi O'zbekistonning madaniy siyosati va rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismidir.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Asqarov A. O'zbekiston xalqining kelib chiqish tarixi. T., 2015.
2. Sadullayev A.S. qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2002.
3. Temur va Ulug'bek davri tarixi. T., 1996.
4. Xoshimov M. O'zbekiston ekologik turizm. T., 2009.
5. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948.
6. Ochildiyev G'.V. Tarixiy o'lkashunoslik. T., 2020.
7. Annayev T.J., Shaydullayev Sh.V. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Samarqand., 1997.
8. Xolmurodov R.M. Tarixiy o'lkashunoslik. Jizzax., 2025.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000